SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	



JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Ortiqov O. A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
DSc., dotsent

Annotatsiya. Hozirgi paytda jahonda raqamli banklarning jadal rivojlanishi bank ishini takomillashtirishga xizmat qilmoqda va banklar faoliyatining kelajagi fintech kompaniyalari bilan uzviy bog'liq holda shakllanishini ko'rsatmoqda. Raqamli banklar sonining ortishi hamda ular tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlarining an'anaviy banklarga nisbatan raqobatbardoshligi mijozlar uchun yuqori qulaylik yaratmoqda. An'anaviy banklar raqamli xizmatlarni rivojlantirish, shuningdek, innovatsion va qulay xizmatlarni taklif etish maqsadida fintech kompaniyalari bilan hamkorlikka investitsiya kiritmoqda. Umuman olganda, bank faoliyatining kelajagi fintech kompaniyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan ushbu kompaniyalar moliyaviy innovatsiyalar va zamonaviy yechimlarni joriy etib bormoqda.

Kalit so'zlar: raqamli banklar, fintech kompaniyalari, bank xizmatlari bozori, raqamlashtirish jarayonlari, moliyaviy innovatsiyalar, raqobatni rivojlantirish, elektron to'lovlar, mobil banking, onlayn bank xizmatlari, fintech ekotizimi, raqamli transformatsiya, an'anaviy banklar, bank texnologiyalari, moliya bozori raqobati, raqamli platformalar, blokcheyn texnologiyalari, mijozlar tajribasi, raqamli to'lov tizimlari, innovatsion moliyaviy xizmatlar, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. Today, the rapid global development of digital banks continues to enhance banking operations and demonstrates that the future of the banking industry is closely linked with fintech companies. The growing number of digital banks and the competitiveness of the services they offer, compared with traditional banks, make these services more convenient for customers. Traditional banks are investing in the development of digital services and in partnerships with fintech companies in order to provide innovative and user-friendly solutions. Overall, the future of banking will be closely shaped by the development of fintech companies, as they act as key drivers of financial innovation and technological advancement.

Key words: digital banks, fintech companies, banking services market, digitalization processes, financial innovations, competition development, electronic payments, mobile banking, online banking services, fintech ecosystem, digital transformation, traditional banks, banking technologies, financial market competition, digital platforms, blockchain technologies, customer experience, digital payment systems, innovative financial services, digital economy.

Аннотация. В настоящее время развитие цифровых банков во всём мире продолжает способствовать совершенствованию банковской деятельности и показывает, что будущее банковской сферы тесно связано с финтех-компаниями. Рост числа цифровых банков и конкурентоспособность предлагаемых ими услуг по сравнению с традиционными банками делают такие услуги более удобными для клиентов. Традиционные банки инвестируют в развитие цифровых сервисов и сотрудничество с финтех-компаниями с целью предоставления инновационных и удобных услуг. В целом будущее банковской деятельности будет связано с развитием финтех-компаний, поскольку именно они внедряют финансовые инновации и современные технологические решения.

Ключевые слова: цифровые банки, финтех-компании, рынок банковских услуг, процессы цифровизации, финансовые инновации, развитие конкуренции, электронные платежи, мобильный банкинг, онлайн-банковские услуги, финтех-экосистема, цифровая трансформация, традиционные банки, банковские технологии, конкуренция на финансовом рынке, цифровые платформы, блокчейн-технологии, клиентский опыт, цифровые платёжные системы, инновационные финансовые услуги, цифровая экономика.



KIRISH

Raqamli banklar an'anaviy banklar faoliyatiga nisbatan yuqori texnologik xizmatlarni ko'rsatishi hamda operatsion samaradorligi hisobiga moliya bozorida raqobat ustunligiga erishib bormoqda. An'anaviy banklarning raqamli banklar ta'siriga javob berish yo'llaridan biri texnologiyalar va raqamli xizmatlarga faol investitsiya kiritish hisoblanadi. Shu bilan birga, an'anaviy banklar fintech kompaniyalari bilan tengdosh to'lovlar, raqamli kreditlash kabi innovatsion mahsulot va xizmatlarni taklif etish maqsadida samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Umuman olganda, an'anaviy banklar texnologiyalarni joriy etish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda mijozlar tajribasini shaxsiylashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali raqamli bank sohasida raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun muhim strategik qadamlar tashlamoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari xizmatlari bozorida tartibga solish muhiti, texnologik taraqqiyot va bozor dinamikasining kengayishi sharoitida raqobat muhitining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mintaqalar bank tizimida raqobat muhiti an'anaviy bank institutlari hamda rivojlanayotgan nobank subyektlar, xususan, moliyaviy xizmatlarni keng ko'lamda taklif etayotgan texnologik kompaniyalar tomonidan shakllantirilmoqda.

I. V. Rashkovskaya va hammualliflarning fikricha, "moliyaviy xizmatlar sohasida texnologik kompaniyalarning yuksalishi yangi raqobat dinamikasini vujudga keltiradi. Ushbu kompaniyalar banklar tomonidan an'anaviy tarzda taqdim etib kelingan to'lov amaliyotlari, kreditlash va kapitalni boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatishda raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda"¹. Ularning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish, kapitalni boshqarish, sug'urta hamda kreditlash xizmatlarini ko'rsatishda texnologik kompaniyalarga moliyaviy xizmatlar bozorida samarali va innovatsion yechimlar taqdim etish imkonini bermoqda.

Bank xizmatlari bozorida mahsulot va xizmatlarni ko'rsatishda raqamli texnologiyalarning qo'llanishi kengayib borar ekan, bu banklardan biznes jarayonlarini qayta ko'rib chiqish, IT infratuzilmani rivojlantirish hamda raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni oshirishni talab etadi. Chakana bank xizmatlari bozorida modulli va moslashuvchan xizmatlarning rivojlanishi mijozlarning yangi innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabini kuchaytirmoqda. Mobil qurilmalarning ommalashuvi esa mijozlarga banklarning onlayn kanallari orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Raqamli xizmatlarning rivoji mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anna Omarini tadqiqotlariga ko'ra, sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalari bilan qo'llab-quvvatlanadigan keng ko'lamli ma'lumotlar oqimini tahlil qilish banklarga mijoz ehtiyojlariga mos, maqsadga yo'naltirilgan mahsulot va xizmatlarni taklif etish imkonini beradi. Mijozlarni chuqurroq anglash orqali ularga qancha va qanday qo'shimcha xizmatlar taklif etish mumkinligini aniqlash imkoniyati yaratiladi².

Risman va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlarning rivojlanishi tijorat banklarining tashqi raqobat muhitida moslashuvchanligini oshiradi. Ular bank biznes modellarini transformatsiya qilish jarayonida raqamli moliya imkoniyatlaridan foydalanish orqali tarixiy tajriba asosida risklarni samarali boshqarish va yangi imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish mumkin, degan ijobiy xulosaga kelishgan³.

Kuin tomonidan Xitoyda raqamlashtirishning bank faoliyatiga ta'sirini baholashga qaratilgan empirik tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlarning jami indeksi banklar raqobatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Muallif raqamlashtirishning bank raqobatiga ta'siri uchta vositachi omil orqali namoyon bo'lishini asoslaydi, ya'ni depozit effekti, kredit effekti va hamkorlik effekti. U panel ma'lumotlar modeli asosida raqamli moliyaning banklar raqobatiga ta'sirini empirik baholagan. Tadqiqotda raqamli xizmatlar yetarli darajada rivojlangan sharoitda banklararo raqobat sezilarli darajada kuchayishi, aks holda esa ta'sir nisbatan cheklangan bo'lishi mumkinligi haqida xulosa qilingan⁴.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari xizmatlari bozorida raqobat muhiti raqamli texnologiyalar va moliyaviy innovatsiyalar ta'sirida tobora mustahkamlanib bormoqda. Raqamli banklar, fintech hamda

- 1 Rashkovskaya, I. V., & Kovaleva, N. A. (2019). Problems of Competition Between Commercial Banks and Technology Companies in the Market of Innovative Products and Services, 1681–1687. doi: 10.1007/978-3-030-47945-9_179
- 2 Anna Omarini The Shangling Landssare of Retail Banking and the Future of Digital Banking https://link.srringer.com/sharter/10.1007/978-981-16-7830-1_8
- 3 Risman, A., Mulyana, B., Silvatika, B., and Sulaeman, A. (2021). The effest of digital finanse on finansial stability. 11(7), 1979–1984. doi:10.5267/j.msl.2021.3.012
- 4 Suiyun Gao, Qian Wang Does digital finanse aggravate bank somretition? Evidense from Shina / <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2023.102041>



texnologik kompaniyalar orqali to'lovlar, kreditlash va kapitalni boshqarish kabi xizmatlarning raqamlashtirilishi banklarga mijoz ehtiyojlariga moslashgan innovatsion mahsulotlarni taklif etish imkonini yaratmoqda. Mobil va onlayn xizmatlarning rivojlanishi mijozlar tajribasini yaxshilash, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda ma'lumotlarni tahlil qilish salohiyatini oshiradi. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va ularning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda raqamli banklar bozorida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda va yangi bank texnologiyalarining rivojlanishi banklarning raqamli xizmatlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida demografik jarayonlarning o'zgarishi, mijozlar xulq-atvorining transformatsiyasi hamda tijorat banklarining onlayn xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortishi sharoitida raqamli xizmatlar jadal rivojlanmoqda. AQShda barcha bank mijozlarining 70 foizdan ortiq qismi bank hisobvaraqlarini boshqarish uchun internetdan foydalanishni afzal ko'radi⁵. Yevropa Ittifoqida esa har uch kishidan ikki nafari internet-banking xizmatlaridan foydalanadi, ayrim mamlakatlarda (Norvegiya, Daniya va Gollandiya) bu ko'rsatkich 95 foizdan ortiqni tashkil etadi⁶.

Jahonda banklarning raqamli xizmatlari rivojlanib borishi an'anaviy bank mijozlarining ham raqamli bank xizmatlarini taklif etuvchi banklarni tanlashiga zamin yaratmoqda. Raqamli banklar mijozlarga o'z hisobvaraqlariga 24/7 rejimida kirish, tezkor va xavfsiz to'lovlar hamda pul o'tkazmalarini amalga oshirish, bank plastik kartalari orqali turli xizmatlardan foydalanish, shuningdek, kredit kartalari va boshqa moliyaviy mahsulotlardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, mijozlarga o'z mablag'larini makon va zamondan qat'i nazar, istalgan qurilma orqali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, raqamli xizmatlar an'anaviy xizmatlarga nisbatan yuqori darajadagi xavfsizlik bilan ajralib turadi, chunki bunda zamonaviy bank texnologiyalari asosida mijozlar ma'lumotlarini himoyalash mexanizmlari qo'llaniladi. Biometrik autentifikatsiya va ma'lumotlarni shifrlash kabi ilg'or xavfsizlik choralaridan foydalanish mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydi hamda raqamli xizmatlardan foydalanishga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

Bugungi jadal raqamlashtirish sharoitida banklar tomonidan mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirish va xizmatlar raqobatbardoshligini saqlab qolish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Mavjud texnologik imkoniyatlar kengayib borayotganiga qaramay, banklar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish muayyan tashkiliy va texnik sa'y-harakatlarni talab etadi. Shu bilan birga, mazkur jarayon banklarga innovatsion rivojlanish, operatsion samaradorlikni oshirish va bozorda mustahkam o'rin egallash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy omillarga quyidagilar kiradi (1-rasm):



1-rasm. An'anaviy bank xizmatlaridan raqamli bank xizmatlariga o'tish bilan bog'liq qiyinchiliklar⁷

5 National Survey, American Bankers Association, 2023.

6 Individuals using the internet for internet banking, Eurostat, 2023.

7 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



An'anaviy bank xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladigan texnologiyalar doimiy yangilanib borishi va bank ishidagi innovatsiyalar bilan hamnafas bo'lishi lozim. Banklarda yangi xizmatlarni joriy etish hamda mavjud xizmatlarni ko'rsatishda foydalaniladigan texnologiyalarning yangilanish sur'atlarining sekinligi raqamli xizmatlarni rivojlantirish jarayoniga muayyan cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur holat banklar uchun texnologik modernizatsiyani jadallashtirish va raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli bank xizmatlariga o'tishda xavfsizlik va maxfiylik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mijozlar haqidagi ma'lumotlar va tranzaksiyalarning ishonchli himoyasi bank tizimiga bo'lgan ishonchning asosiy omillaridan biridir. An'anaviy bank xizmatlari ko'rsatishda kiberhujumlar va ma'lumotlar sizib chiqish xavfi mavjud bo'lsa-da, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu xatarlarni samarali kamaytirish va himoya mexanizmlarini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

An'anaviy bank xizmatlari ko'rsatishda ko'pincha samarasiz jarayonlar kuzatiladi. Jumladan, uzoq kutish va inson omilining yuqori ulushi, shuningdek, shaffoflikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanish qulayligini cheklashi mumkin. Biroq raqamli yechimlarni joriy etish ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish, xizmatlar tezligi va sifatini oshirish orqali mijozlar qoniqishini ta'minlashga xizmat qiladi.

An'anaviy bank xizmatlari sotuvini kengaytirish va rivojlantirish banklardan muayyan moliyaviy resurslarni talab etadi, bu esa xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar banklar uchun uzoq muddatda samaradorlikni oshirish, yangi bozor segmentlarini egallash hamda mijozlarga innovatsion xizmatlarni taklif etish imkoniyatlarini yaratadi.

Ilg'or bank texnologiyalarini joriy etish orqali an'anaviy banklar o'z infratuzilmasi va arxitekturasini modernizatsiya qilishga intiladi, buning uchun esa qo'shimcha resurslar va strategik yondashuv talab etiladi. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar bazasi kengayib borishi bilan kiberxavfsizlikning ahamiyati yanada ortadi. Banklar fribgarlik va o'g'irlik xavfini kamaytirish maqsadida yangi himoya tizimlarini joriy etadi, bank siri va mijozlar ma'lumotlarini himoyalash masalalari esa nazorat qiluvchi organlar bilan hamkorlikda doimiy takomillashtirib boriladi.

Raqamli bank xizmati bankka jismoniy tashrif buyurmasdan, internet tizimlari orqali bank hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beruvchi onlayn dasturiy yechim sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli xizmatlar yordamida mijozlar kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali hisobdagi qoldiqlarni tekshirish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, depozit omonatlarini ochish, to'lovlarni bajarish hamda boshqa bank operatsiyalarini masofadan turib bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tijorat banklarining an'anaviy va raqamli xizmatlari o'rtasidagi farqlar hamda ularning afzalliklarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. 4.1-jadvalda ushbu xizmatlarning farqli jihatlari yoritilgan. An'anaviy banklarda xizmatlar asosan jismoniy mavjud bo'lgan filiallar tarmog'i orqali ko'rsatiladi. Bugungi kunda esa raqamli bank xizmatlari ulushi tobora ortib bormoqda va bank xizmatlari bozorida ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Masalan, AQShda 2017–2021-yillar oralig'ida tijorat banklarining barcha filiallarining qariyb 9 foizi, ya'ni 7 500 ga yaqin bank filiali faoliyati to'xtatilgan⁸. Notijorat milliy hamjamiyatni qayta investitsiyalash koalitsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yopilishlarning uchdan bir qismi past daromadli hamda chekka hududlarga to'g'ri kelgan bo'lib, bu raqamli xizmatlarning hududiy qamrovni kengaytirishdagi ijobiy rolini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining an'anaviy va raqamli xizmatlari o'rtasidagi farqlari hamda ularning afzalliklari⁹

Ko'rsatkichlar	An'anaviy bank xizmatlari	Raqamli bank xizmatlari
Xizmatlar	Asosan filiallar orqali ko'rsatiladi, ayrim hollarda onlayn hisoblarni ham taklif etishi mumkin.	Asosan onlayn va mobil banking orqali ko'rsatiladi.
Afzalliklar	Keng bank mahsulotlari tanlovi; Mijozlarga shaxsan xizmat ko'rsatish; Bankomat tarmoqlaridan foydalanish imkoniyati.	Bank xizmatlaridan istalgan joyda foydalanish imkoniyati; Nisbatan yuqori foiz stavkalari; To'lovlarni tez va qulay amalga oshirish.

⁸ <https://nsrs.org/the-great-consolidation-of-banks-and-acceleration-of-branch-closures-across-america/>

⁹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




Kamchiliklari	Nisbatan yuqori to'lovlar;	Ayrim xizmatlar va mahsulotlar turlari cheklangan bo'lishi mumkin;
	Hisob ochish va ayrim operatsiyalar uchun qo'shimcha hujjatlar talab etilishi;	Internet tizimidagi uzilishlar xizmatlar uzluksizligiga ta'sir qilishi mumkin;
	Ko'proq vaqt va mablag' sarflanishi;	Kiberhujumlar xavfi mavjud.
	Zarur xizmatlarni topishda qulaylikning cheklanganligi.	

AQShda banklar faoliyatidagi birlashish va konsolidatsiya jarayonlari so'nggi 45-yil davomida bank aktivlari yirikroq bo'lgan kamroq sonli institutlarning shakllanishiga olib keldi. Ushbu jarayon natijasida kichik banklar faoliyati qisqarib, yirik banklarning bozor ulushi va institutsional salohiyati tobora ortib bormoqda. Bu holat bank tizimida barqarorlikni mustahkamlash hamda resurslarni markazlashtirish imkonini yaratmoqda.

Qishloq hududlarida joylashgan ayrim bank filiallari moliyaviy samaradorlikning pastligi sababli faoliyatini to'xtatgan bo'lib, 2008–2016-yillar oralig'ida 80 dan ortiq qishloq filiallari tugatilgan. Shu bilan birga, mazkur jarayon raqamli bank xizmatlarining kengayishi orqali aholiga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining oshishiga zamin yaratdi.

Bank filiallari soni 2009-yilda 95,0 ming tani tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichga yetgan. 2007-yilgi global moliyaviy inqiroz bank tizimida tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirdi va shundan so'ng AQShdagi an'anaviy mahalliy filial bank tizimida bosqichma-bosqich qisqarish jarayoni kuzatila boshlandi. 2009-yildan buyon banklarning 13 mingdan ortiq filiallari yopilgan. Ushbu holatning asosiy omillaridan biri sifatida bank xizmatlarining raqamli kanallar orqali kengayib borishi, ya'ni mijozlarga qulay va samarali masofaviy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining rivojlanishini ko'rsatish mumkin (2-rasm).



2-rasm. AQShda faoliyat yuritgan mahalliy bank filiallari tarmog'ining o'zgarishi¹⁰ (ming birlikda, yil boshiga nisbatan)

2-jadval. Tijorat banklarining internet-banking va raqamli banking xizmatlari o'rtasidagi farqlari hamda ularning afzalliklari¹¹

Xususiyatlar	Internet-banking	Raqamli banking
Qo'llash doirasi	Bankning veb-sahifasi orqali internetga asoslangan tranzaksiyalar amalga oshiriladi.	Raqamli xizmatlar internet-banking, bankomatlar va boshqa kanallarni o'z ichiga olgan kengroq raqamli muhitda taqdim etiladi.
Foydalanish imkoniyati	Asosan kompyuter va noutbuklardagi veb-brauzerlar orqali xizmatlardan foydalaniladi.	Bankning mobil ilovalari, veb-sahifalari va boshqa raqamli kanallar orqali bir nechta platformada foydalanish imkoniyati mavjud.
Taklif etilayotgan xizmatlar	Asosan pul o'tkazmalari, hisob-kitoblar va balans so'rovlar kabi asosiy operatsiyalar bajariladi.	Asosiy operatsiyalardan tashqari, hisob ochish, kredit olish uchun arizalar topshirish hamda investitsiya xizmatlari kabi kengroq imkoniyatlar taklif etiladi.

¹⁰ Tadqiqot natijalari va <https://nsrs.org/the-great-consolidation-of-banks-and-acceleration-of-branch-closures-across-america/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




Foydalanuvchi tajribasi	Kompyuter va noutbukdan foydalanishga moslashtirilgan interfeyslarga ega bo'lish talab etiladi.	Turli raqamli aloqa nuqtalari orqali shaxsiylashtirilgan, omnikanal foydalanuvchi tajribasi taqdim etiladi.
Innovatsiya	Innovatsiyalar asosan veb-interfeys va tranzaksiyalar xavfsizligini takomillashtirish bilan cheklanadi.	Biometrik autentifikatsiya, chatbotlar va shaxsiylashtirilgan moliyaviy yechimlar kabi yangi texnologiyalar asosida doimiy rivojlanib boradi.
Mijozlar bilan o'zaro ta'sir	O'zaro aloqa asosan tranzaksiyaga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiylashtirish darajasi cheklangan.	Foydalanuvchi ma'lumotlari va xatti-harakatlari asosida shaxsiylashtirilgan xizmatlar, takliflar va moliyaviy maslahatlar orqali mijozlar faol jalb etiladi.
Xavfsizlik	Kuchli shifrlash va autentifikatsiya choralari asoslangan xavfsiz tranzaksiyalar ta'minlanadi.	Barcha raqamli kanallar bo'yicha kompleks xavfsizlik choralari, jumladan, foydalanuvchini aniqlashga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda bank sektorida jarayonlarni avtomatlashtirish va firibgarlikning oldini olish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, xavfsizlikni kuchaytirish uchun blokcheyn yechimlarini joriy etish, onlayn banklar hamda mobil ilovalarni rivojlantirish, shuningdek, xizmatlarni shaxsiylashtirishda katta hajmli ma'lumotlar (big data) tahlilidan foydalanish kabi ilg'or texnologik tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu yo'nalishlar bank faoliyatining samaradorligini oshirish va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Raqamli bank xizmatlarining keng assortimentiga raqamli hisobvaraqlarni ochishdan tortib kredit olish, depozitlarni to'ldirish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlari kiradi. Banklar ma'lumotlar tahlilining imkoniyatlaridan foydalangan holda, mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqamli bank platformalari orqali maxsus moslashtirilgan mahsulot va xizmatlarni taklif etishi mumkin. Bank tomonidan mijozga taklif etilayotgan xizmatlarning uning shaxsiy moliyaviy maqsadlariga mosligi mijozlar qoniqishini oshirish bilan birga, bankning sotuv hajmi va raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yaponiya bank tizimida banklar aholi, korxonalar va davlat tuzilmalariga kreditlar, depozitlar hamda to'lov xizmatlari kabi turli moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish orqali mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Yaponiya banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 31-may holatiga mamlakatda mahalliy litsenziyaga ega banklar tarkibi quyidagicha: shahar banklari — 5 ta, mintaqaviy banklar — 62 ta, ikkinchi toifadagi mintaqaviy banklar — 37 ta, trast banklari — 31 ta, uzoq muddatli kredit banklari — 3 ta, shuningdek, Yaponiyada faoliyat yuritayotgan xorijiy banklar — 48 ta. Ushbu ko'rsatkichlar Yaponiya bank tizimining institutsional xilma-xilligi va barqaror rivojlanish salohiyatini aks ettiradi (3-rasm).



3-rasm. Yaponiya bank tizimida TOP3 banklar aktivlarining konsentratsiya darajasi o'zgarishi¹² (foizda)

12 <https://fred.stlouisfed.org/tags/series?t=banks%3Bjaran&rt=jaran&ob=rv&od=dess>



Yaponiyaning eng yirik Shinkin bankining sobiq ijrochi direktori Yoshihara tomonidan iBank indeksidan foydalanish konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, u Yaponiya bank tizimini rivojlantirish va rag'batlantirish, shuningdek, biznes va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun muhim katalizator sifatida taklif etilgan.

Yoshihara ushbu konsepsiya orqali banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga undaydi hamda boshqa banklar tomonidan takrorlanishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli amaliyotlar bo'yicha yo'nalishlar ko'rsatadi. iBank indeksi yordamida har bir bankning atrof-muhit, jamiyat va boshqaruv (ESG) tamoyillariga sodiqligini kuchaytirish, ochiq va shaffof moliyaviy tizimni rivojlantirish hamda mijozlar uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayadi.

Bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va undagi dinamik o'zgarishlarga moslashish uchun an'anaviy boshqaruv ko'rsatkichlarini tashqi muhit omillarini hisobga oluvchi zamonaviy baholash tizimlari bilan boyitish zarur. Shu munosabat bilan banklar ESG tashabbuslarini institutsional baholash tizimiga integratsiya qilishi, mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor javob berish uchun esa iBank indeksidan faol foydalanishi lozim. Mazkur yondashuv tijorat banklariga operatsion samaradorlikni oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda banklararo raqobat muhitini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida tahlil qilingan rivojlangan davlatlar tajribasi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va amaliyotida bir qator ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi. Jumladan, AQSh bank tizimi tajribasidan kelib chiqib, banklar o'rtasidagi raqobat muhitini baholashda bozor konsentratsiyasining umumiy qabul qilingan ko'rsatkichi bo'lgan Herfindal–Xirshman indeksidan foydalanish, banklarning qo'shilish va birlashish jarayonlarida raqobat muvozanatini ta'minlash maqsadida qo'shilishdan keyingi indeksning 200 punktdan ortiq oshishiga yo'l qo'ymaslikni huquqiy jihatdan belgilash zarur. Shu bilan birga, Yaponiya tajribasi asosida iBank indeksini O'zbekiston bank amaliyotiga joriy etish "bank — mijoz uchun" tamoyilini amalda ro'yobga chiqarish, mijozlarning xohish-istaklari va ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda ularni qondirish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning amaliy samarasi sifatida AT "Aloqabank" faoliyatida yirik mijozlar ehtiyojlari asosida E-auksion elektron onlayn auksionlari uchun billing tizimi hamda Musulmonlar idorasi uchun Haj va Umra safarlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish va nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlarining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlari faolligini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, respublikaning chekka va qishloq hududlarida bank xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash va doimiy monitoring qilish, aholining hamda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini tizimli o'rganish raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali hududiy moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rashkovskaya, I. V., & Kovaleva, N. A. (2019). Problems of Competition Between Commercial Banks and Technology Companies in the Market of Innovative Products and Services, 1681–1687. doi: 10.1007/978-3-030-47945-9_179
2. Omarini, A. The Changing Landscape of Retail Banking and the Future of Digital Banking. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-16-7830-1_8
3. Risman, A., Mulyana, B., Silvatika, B., & Sulaeman, A. (2021). The effect of digital finance on financial stability, 11(7), 1979–1984. doi: 10.5267/j.msl.2021.3.012
4. Gao, S., & Wang, Q. Does digital finance aggravate bank competition? Evidence from China. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2023.102041>
5. National Survey. American Bankers Association, 2023.
6. Individuals using the internet for internet banking. Eurostat, 2023.
7. <https://nsrs.org/the-great-consolidation-of-banks-and-acceleration-of-branch-closures-across-america/>
8. <https://geniusee.com/single-blog/digital-banking-trends>
9. <https://www.boj.or.jp/en/statistics/outline/note/notest32.htm>
10. <https://fred.stlouisfed.org/tags/series?t=banks%3Bjapan&rt=japan&ob=rv&od=desc>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
